

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR NOMIDAGI
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

Xorijiy tillar fakulteti 2 bosqich talabasi M.Foziljonovanning

**“Zamonaviy sharoitda o‘qituvchining faoliyati ko‘nikmalarini
shakllantirishdagi ustuvor omillar”**

mavzusida yozgan

REFERAT

Ilmiy rahbar: G.Qosimova

Andijon – 2015

MAVZU: ZAMONAVIY SHAROITDA O‘QITUVCHINING FAOLIYATI KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHDAGI USTUVOR OMILLAR

KIRISH

O‘qituvchi faoliyatidagi o‘z ustida ishlashga zamonaviy yondashuv
Zamonaviy sharoitda o‘qituvchining faoliyatiko‘nikmalarini shakllantirishga qo‘yiladigan talablar
O‘qituvchi faoliyatiko‘nikmalarini shakllantirishda pedagogik axloqning tutgan o‘rni
O‘qituvchining o‘z ustida ishlash, o‘z-o‘zini anglash, tarbiyalashida ilmiy ijod va tadqiqot ishlarining ustuvor jihatlari

XULOSALAR

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. O'zbekiston respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va ma'naviy hayotida, ayniqsa, ta'lim sohasida tub o'zgarishlar amalga oshirildi. «Ta'lim to'g'risida»gi qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar asosini tashkil etadi. Mazkur hujjatlarda ta'lim sifati va samaradorligini oshirish, uzluksiz ta'lim tizimining uzviyligini ta'minlash, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash milliy tizimini yaratish ko'zda tutilgan. O'qituvchi umuminsoniy va milliy-axloqiy fazilatlarni o'zlashtirib olishi, tajribada qo'llashi, o'zining dunyoqarashi, mafkurasi va axloqiy tajribasi bilan taqqoslash lozim. Fikrlash va his etish, turmushda sinab ko'rish natijasida umuminsoniy va milliy-axloqiy sifatlar, qoidalar, normalar o'qituvchining o'z axloqiy fazilatiga, e'tiqodiga aylanadi. Bular muallimning dunyoqarashi, fikr va mulohazalari bilan qo'shilib, bozor iqtisodiyotiga asoslangan jamiyat qurish sharoitida uning o'rni va rolini belgilaydi.

O'qituvchi axloqida burch hissi Vatanni sevish, uning porloq kelajagi uchun g'amxo'rlik qilishni talab etadi. O'qituvchi odobida vatanparvarlik burchi baynalmilalchilik tuyg'usi bilan chambarchas bog'liqdir.

Ijtimoiy burchni yuksak darajada anglash o'qituvchining axloqiy fazilati hisoblanadi. Muallim bolalarga o'rgatadigan g'oyalar uning qalbidan joy olib dunyoqarashning asosi bo'lishi zarur. Har bir ishda, har bir masalada muallim o'z burchiga sodiq, qat'iy printsipli bo'lishi, har qadamda unga amal qilishi zarur. Muallimning mafkurasi fuqarolik ruhi bilan sug'orilgan bo'lsa, ijtimoiy burchni vijdonan his qilishga, intizomlilik, o'z xatti-harakatlarini nazorat qila bilish; insonparvarlik, o'z qadr-qimmatini to'g'ri baholay olishga imkon beradi.

1 O'qituvchi faoliyatidagi o'z ustida ishlashga zamonaviy yondashuv

O'qituvchilik kasbi murakkab faoliyat bo'lib, u bir tomondan, ijtimoiy buyurtma bajarilishini, ikkinchi tomondan, tahsil oluvchilarning individual xususiyatlari va shart-sharoitlarini, uchinchi esa mustaqil holda ijodiy ish ko'rishni talab etadi.

Ta'lim-tarbiya muassasalari oldiga qo'yilgan ijtimoiy buyurtmaning natijalariga o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarlik darajasi, g'oyaviy e'tiqodi, mustaqil va ijodiy ishlay olish qobiliyati, kasbi va bolalarni sevishi hamda qadrlashiga bevosita bog'liq. Shuning uchun ham o'qituvchilar tayyorlash uzluksiz ta'lim tizimini takomillashtirishning asosiy masalalaridan hisoblanadi.

O'qituvchining kasbiy-pedagogik faoliyati majmuaviy xarakterli bo'lib, juda ko'plab vatandosh hamda xorijiy olimlar tomonidan tadqiq etilib, quyidagi o'zaro aloqador vazifalarni bajarishi ko'rsatilgan:

- loyihalovchilik - ta'lim turi, maqsadi, mazmuni va vazifalari, tahsil oluvchilarning individual xususiyatlari, shart-sharoiti, o'zining tayyorgarlik darajasi kabilarga mushtarak holda ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etuvchi komponentlarni uyg'unlikda rejalashtirish;

- tashkilotchilik - qo'yilgan maqsadga yetishish uchun tahsil oluvchilar jamoasini tashkil etib, ularni o'qib-o'rganishga safarbar etish;

- fikr almashish (kommunikativ) - inson-inson munosabatlari va muloqotini o'rganish, tahsil oluvchilar ongiga hamda qalbiga yo'l topish, ularni ishontirish;

- axborotchilik - o'zi o'qitayotgan o'quv predmeti bo'yicha asosli chuqur va puxta, yondosh hamda tutash fanlar bo'yicha ham yetarli bilim, ish-harakat usullariga ega bo'lib, tahsil oluvchilarga yetkaza olish;

- rivojlantiruvchilik - ijtimoiy buyurtma, ta'lim turi, maqsadi, vazifalari, shart-sharoit tahsil oluvchilarning individual xususiyatlari kabilarni hisobga olgan holda ularni aqliy, axloqiy va jismoniy rivojlantirish;

- yo'naltiruvchilik - tahsil oluvchilarning individual xususiyatlari: yoshi, qiziqishi, moyilligi, qobiliyati kabilarni hisobga olgan holda inson-inson; inson-

texnika; inson-badiiy obraz; inson-belgilar tizimi; inson-tabiat faoliyati sohalariga yo‘naltirish;

- tadqiqotchilik - davlat va jamiyat taraqqiyoti, xalq farovonligi, tinchligini ko‘zlovchi dolzarb hamda istiqbolli muammolarning yechimini topishda ijodiy izlanish, faol ishtirok etish, tajriba-sinov ishlarini olib borish, g‘oyalarni ilgari surish;

-texnik-texnologik - o‘zining kasbiy-pedagogik mahoratini oshirish, o‘quv yurtining moddiy-texnik, o‘quv-uslubiy ta‘minotini mustahkamlash, ta‘lim mazmuniga yangi texnika, ilg‘or ishlab chiqarish va pedagogik texnologiyalarni kiritish.

O‘qituvchining jamiyat taraqqiyoti faravonligini ta‘minlashdagi o‘rni haqida gap ketar ekan, u ta‘lim oluvchilarni va o‘z kasbini sevishidan tashqari saboq beradigan fani bo‘yicha ham har tomonlama mukammal bilim, ish-harakat usullari, ijobiy-shaxsiy fazilatlarga ega bo‘lishga erishishi lozim.

Bo‘lajak o‘qituvchilarida o‘quv-bilish faoliyatida mustaqillik va faollikni shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari hamda boshqa omillarini aniqlash muammosi hozirga qadar o‘z yechimini to‘laqonli topgan emas. Ma‘lumki, kasbiy pedagogik tayyorgarlik sifat va samaradorligini oshirishda uning nazariy asoslarini yaratish va ilg‘or pedagogik tajribalardan keng ko‘lamda foydalanish turli yo‘nalishlarda tadqiq etiladi. Bu yo‘nalishlarning har birida fan-texnika, texnologiyaning rivojlanganlik darajasi va jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy talablari hisobga olinadi. Kasb ta‘limi o‘qituvchilari zamonaviy fan-texnika taraqqiyoti, ilg‘or ishlab chiqarish texnologiyasi, ijtimoiy-iqtisodiy talablarni mohiyatiga tushunib yetmaganligi sababli o‘ziga yuklatilgan nihoyatda murakkab va mas‘uliyatli ish hisoblangan yosh avlodni ma‘naviy, ruhiy va jismoniy jihatdan kamol toptirishdek muhim vazifalarni ado eta olish imkoniyatiga ega bo‘lmaydilar. Shuning uchun ham ijtimoiy faol, mustaqil fikr yuritadigan va ijodiy faoliyat yurita oladigan bo‘lajak kasb ta‘limi o‘qituvchilarini tayyorlash uchun talabalarni o‘quv bilish faoliyatlarini faollashtiruvchi omillardan oqilona foydalanish lozim.

Kasb ta‘limining o‘ziga xos xususiyati yana shundan iboratki, uning

mazmunida barcha ijtimoiy, iqtisodiy, tabiiy texnik va boshqa fanlar mazmunan integratsiyalashgan xolda amaliy tadbirini topadi. Shu jihatdan olib qaraganda kasb ta'limi o'qituvchisi turli fanlar mazmunini o'zida mujassamlashtiruvchi (integratsiyalovchi) mutaxassis hisoblanadi. Chunki, kasb ta'limi amaliyotini fan-texnika yutuqlari va ilg'or ishlab chiqarish texnologiyalaridan ajralgan holda tasavvur qilib bo'lmaydi. Mehnat qurollari, mexanizm va mashinalarning tuzilishi, ishlash tartibini, bajaradigan texnologik jarayonlarning kechishini muayyan qonuniyatlarga asoslanib tushuntirilmog'i lozim. Demak, bu o'z navbatida o'qituvchidan fan asoslarini yuqori darajada egallagan bo'lishini taqozo etadi. Shuningdek, qator umumtexnika (nazariy mexanika, materiallar qarshiligi, mashinalar qismlari issiqlik texnikasi, gidravlika va shu kabi) fanlarini ham puxta bilishni talab etadi.

2. Zamonaviy sharoitda o'qituvchining faoliyatiko'nikmalarini shakllantirishga qo'yiladigan talablar

Shaxs axloqini tavsiflaydigan belgilardan biri mas'uliyatdir. Boshqa kishilar oldidagi o'z burchini anglash va uni kishi xulqining rag'batiga aylantirish, odam o'z faoliyatini boshqalarga ko'proq yaxshilik qo'yilishga ongli va ixtiyoriy ravishda yo'naltirishi mas'uliyat tushunchasining mazmunini tashkil etadi.

O'qituvchining mas'uliyati-mas'uliyat tushunchasining butun mazmunini saqlagan holda muallimning faoliyati va ta'lim-tarbiya jarayonining aniq vazifalarini ham o'z ichiga oladi. O'qituvchi zimmasiga bola shaxsini barkamol inson sifatida tarbiyalash mas'uliyati yuklanadi. Muallim o'qituvchilarga chuqur nazariy bilimlar berishi, uni hayotga, mehnatga tayyorlashi lozim. Shu bilan birga, u boladagi mavjud layoqat va qobiliyatlarni payqab, alohida yondashishi, unda mavjud bo'lgan ijobiy axloqiy fazilatlarni avaylab ustirishi lozim.

Umuminsoniy va milliy axloqning muhim fazilatlaridan biri insonlik sha'ni, qadr-qimmatidir. Kishining qadr-qimmati, avvalo, umumiy ishga qo'shayotgan hissasining salmog'i va sifati bilan belgilanadi. Bozor iqtisodiyotiga asoslangan

jamiyatda inson o'z mehnatining salmog'i va sifati bilan, aqliy va jismoniy mehnatining samarasi bilan, ishbilarmonligi bilan qadrlanadi. Halol mehnat kishining qadrini, izzat-hurmatini oshiradi. Kishi o'z mehnatining qadriga yetishi, u bajarayotgan ish jamiyatda ahamiyatli ekanligini tushunishi lozim. Kishining umumiy ishga qo'shayotgan hissasining salmog'i, u qaysi vazifani bajaryotganligida emas, balki o'z ishini qanchalik yaxshi, sidqidildan bajarishiga bog'liq. Insonning qadr-qimmati uning mansabi, kasbi-koridan ko'ra ham ko'proq o'z kasbini qanday bajarishiga, uning odobi va xulq-atvoriga bog'liqdir.

Muallim maktab rahbarlari, hamkasblari va boshqalar bilan muomala, munosabatda kibr-havoga berilmasa, manmanlik qilmasa yoki o'rinsiz itoatgo'ylik, hokisorlik, laganbardorlik qilmasa, uning o'quvchilar oldida boro'si, qadr-qimmati ortadi.

Sha'n, kishining sha'ni deganda, odamning yoki u mansub bo'lgan sotsial guruhning qadr-qimmati, yaxshi nomi, obro'si, shuhrati, dong chiqarishi kabilar ham nazarda tutiladi (Oila sha'ni, olimlik sha'ni, o'qituvchilik sha'ni, rahbarlik sha'ni kabi). "Biz ona O'zbekiston itsiqbolini, uning sha'nu-shavkatini qanday himoya etishni ota-bobolarimizdan meros qilib olishimiz va uning himoyasiga hamisha tayyor turmog'imiz darkor".

O'qituvchi odobida muallimning shuhratparsatlighi va manmanligi qoralanadi. Buning boisi shundaki, o'qituvchilik faoliyati avvalo, umumxalqning baxt-saodati uchun xizmat qilishga yo'naltirilgan. O'qituvchilik sha'nini jamoatchilik tan olgan bo'lishi kerak aks holda uning ma'nosi qolmaydi. Muallimning sha'ni va qadr-qimmati uning xizmatlari va axloqiy fazilatlarini jamoatchilik tomonidan tan olinishi hamdir.

Vijdon kishining o'z xatti-harakati, qilmish, yurish-turishi uchun odamlar, jamoatchilik oldidagi mas'uliyat tuyg'usidir. U diyonat, insof, halollik, sofdillik degan ma'nolarni ham bildiradi. Abdulla Avloniy: "Vijdon deb ruhimizga, fikrimizga ta'sir qiladurgan hissiyot, ya'ni sezuv-tuymakdan iborat ma'naviy quvvatni aytiladur" deb ta'rif bergan edi. Uning fikricha vijdon kishining fe'l-atvori va harakatlarining yaxshi va yomonligini, foydali yoki zararlighini ko'rsatadi.

Vijdon inson aqli va fikrining haqiqiy mezonidir. Uning yordamida har bir kishi o'z kamchiliklarini va boshqalarning fe'l-atvorini o'lchaydi, baholaydi. "Agar ishlagan ishi shariat, aql va himaktga muvofiq bo'lsa, muhabbat qilur, qabohat va yomon ishlarni qilsa, nafrat qilur". Vijdon yaxshi xulqlarning manbai bo'lgani uchun ham vijdonli kishilar har bir ishni beg'araz va xolis niyat bilan bajaradilar va bundaylar boshqalar nazarida maqbul va suyuqli kishilar hisoblanadi. Vijdonsiz kishilar esa o'z qilgan amallari oqibatida hasrat va nadomat chekib, vijdon azobiga giriftor bo'ladilar. Vijdoni salomat kishilar iymonli va e'tiqodli bo'ladilar. Shod va xurramlikda umr kechiradilar.

Agar kishida o'qituvchilik qilishga qobiliyat, pedagogik faoliyatga qiziqish, itse'dod bo'lmasa, jamiyat talab qiladigan darajada bolalarni o'qita olmasa, agar u kun o'tkazish uchungina muallimlik qilayotgan bo'lsa, bu-o'qituvchilik vijdonining yo'qligini ko'rsatadi. Vijdonli o'qituvchi kechirimli bo'ladi. Agar u ta'lim berayotgan bolalarning bilimi pats, xulqida qusurlar, kamchiliklar uchrayotgan bo'lsa, bundan o'qituvchi vijdonan qiynaladi. O'qituvchining vijdonini faqat uning o'zigina nazorat qilishi mumkin. Muallim nazoratchilar ishtirok etayotganda o'quvchilar bilan oldindan tayyorlab mashq qilib qo'ygan darsni qayta o'tishi, kuzatuvchilar buni sezmasligi yoki aniqlay olmasligi, payqamasligi ham mumkin. Shuning uchun ham o'qituvchining halolligi, insofililigi pedagoglik vijdonining mezoni hisoblanadi.

O'qituvchining professional axloqiy fazilatlaridan biri talabchan va adolatli bo'lishdir. Muallimning talabchanligida uning bola shaxsiga chuqur hurmati, bolaning kuchi, qobiliyati va imkoniyatlariga bo'lgan ishonchi ifodalanadi. Bu haqiqiy insonparvarlikning namoyon bo'lishi, ya'ni rivojlanayotgan bola shaxsi to'g'risida, jamiyat uchun foyda keltira oladigan barkamol kishini tarbiyalash to'g'risidagi g'amxo'rlikdir. O'quvchilar loqaydlikni yoqtirmaydilar, aksincha yaxshi niyat bilan oqilona qilingan talabchanlik ularning muallimga hurmatini oshiradi.

Adolatlilik insoniylikning asosi hisoblanadi. Odobli va insonparvar bo'lish uchun adolatli bo'lish zarurdir. Adolat boshqa kishilarga muomala-munosabatda

namoyon bo'ladigan fazilatdir. Adolatli kishi yaxshi xulqli odam hisoblanadi. Bunday odam o'ziga ravo ko'rmagan biror ishni boshqaga ravo ko'rmaydi. Adolatlilik va insoniylik kishini yomon ishlardan saqlash bilan birga boshqalarni ham xatoliklardan asrash, yaxshi yo'lga solish uchun zarurdir. Adolatli kishi boshqa birovga yoki jonivorlarga ozor bermaydi. Zulm qilmaydi. Aql-idrok bilan ish qiladi.

O'qituvchi odobida halollik fazilati pedagoglik faoliyatning o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq holda namoyon bo'ladi. O'qituvchi odobida adolatlilik muallimning obektivligida, axloqiy tarbiyalanganlik darajasi (insoniyligi, printsiptalligi, yaxshligi) da, o'quvchilar xulqini, jamoat ishlariga munosabatini, bilimini baholashda namoyon bo'ladi. Demak, adolatlilik bir tomondan o'quvchilarga o'tkazilgan tarbiyaviy ta'sirni baholashning mezoni hisoblanadi. Muallimning o'quvchilarga va pedagogik jarayon qatnashchilariga bo'lgan munosabati manmanlikdan, noxolislik, o'zboshimchalikdan holi bo'lish lozim. Shundagina u adolatlilaridan bii shundaki, u har kuni o'quvchilar bilan uchrashadi, ularning bilimini, xulqini baholaydi. Yaxshi shlarini rag'batlantiradi, nojo'ya xatti-harakatlari, sho'xliklari uchun tanbeh beradi. Albatta muallimning fikri, mulohazalari baholarida nisbiylik, sub'ektivlik belgilari mavjud. U hamma bolalarga aynan birdek, juda to'g'ri munosabatda bo'la olmasligi mumkin.

O'quvchining xulqini baholashda ham muallimdan adolatli bo'lish talab etiladi. Agar muallim bolaning xulqini, xatti-harakatlarini baholashda shu xatti-harakatlarga sabab bo'lgan mativlarni e'tiborga olmasa adolatsizlikka yo'l qo'yadi. Muallim yoki ota-onaning bolaga nisbatan adolatsiz xatti-harakati, munosabati bolaning ruhiyatiga salbiy ta'sir etib, nevrozga sabab bo'lishi ham mumkin (Nevroz-markaziy asab sitsemasining buzilishi natijasida yuzaga keladigan va ichki organlar faoliyatini susaytiradigan kasallik). Bola bilan bo'lgan muomala-munosabatlarda uning taqdiriga nisbatan loqaydlik, unga o'rinsiz baqirish, qo'rqitish, jahl qilish kabilar shularga olib keladi.

Agar o'qituvchi qo'ygan bahoni bola adolatsizlik deb qabul qilsa va muallim bolaning kundalik daftariga shu bahoni qo'yib, ota-onasiga: "tegishli chora

ko‘rishni” so‘rab yozib yuborsa, bunday paytlarda o‘quvchi muallimdan nafratlanishi o‘qishdan ko‘ngli sovib, maktabni tashlab ketishi ham mumkin. Adolatsizlik qilish boshqa sohalarga nisbatan ta’lim-tarbiya ishiga katta ma’naviy-axloqiy zarar yetkazadi. Muallimning adolatsizligi bolaning qalbini jarohatlaydi, maktabni sha’niga putur yetkazadi, kattalarga bo‘lgan ishonchini yo‘qqa chiqaradi. Shuning uchun ham, muallimning har bir xatti-harakati, amaliy ishlari adolatlilik namunasi bo‘lmog‘i kerak.

Bilimdonlik, halollik, rostgo‘ylik- o‘qituvchining muhim axloqiy fazilati, ma’naviy boyligi hisoblanadi. Bu fazilatlar insonning munosabatlarini go‘zallashtiradi. Insonning moddiy ehtiyojlari cheklangan bo‘ladi va to‘la qondirilishi mumkin. Lekin ma’naviy ehtiyojlar ma’naviy boyliklar singari cheksizdir. Kishi yaratgan ma’naviy boyliklarini qanchalik ko‘p o‘zlashtirsa, uning shaxsi shunchalik barkamol bo‘ladi.

Har tomonlama bilim va yuksak madaniyatga ega bo‘lish o‘qituvchi odobining talablaridan biridir. Bozor iqtisodiyotiga asoslangan jamiyat kishisining ideali insonning aqliy barkamol, ma’naviy boy, ishbilarmon, axloq-odobli, halol, rostgo‘y, o‘zini tuta oladigan bo‘lishini taqazo qiladi. Maktab o‘quvchilari bu idealga ntiladilar. O‘quvchiga axloqiy ta’sir o‘tkazishning samarasi o‘qituvchining chuqur bilimli, yuksak madaniyatli, barkamol inson bo‘lishiga bog‘liq. Muallim o‘zi o‘qitadigan fanini xshi bilishi va undan tuzukkina dars berishi bilangina bunga erisha olmaydi. Haqiqiy ustoz o‘z predmetini bilish bilangina cheklanib qola olmaydi. U juda ko‘p narsalarni bilishga, tushunishga, his etishga intilishi lozim. Mafkuraviy hayot, badiiy adabiyot, tasviriy san’at, teatr, kino, televidenie, musiqa, arxitektura, sport-muallim bularning barchasidan xabardor, ularni tushunadigan, qadrlaydigan bo‘lishi talab etiladi. O‘qituvchi hamma narsani ko‘ra oladigan bo‘lishi zarur, lekin har joydan bir shingil emas, balki, avvalo, o‘z ishini, o‘zi o‘qitadigan fanni puxta bilishi, shu bilan birga bilimlarning boshqa sohalariga ham qiziqishi, ulardan xabardor bo‘lishi kerak.

3. O'qituvchifaoliyatiko'nikmalarinishakllantirishda pedagogik axloqning tutgan o'rnini

Pedagogik axloqning paydo bo'lishi insoniyat tarixining eng qadim zamonlariga borib taqaladi. U o'qituvchilik kasbi bilan birga tarbiyachilik faoliyatining tarkibiy qismi sifatida vujudga kelgan. Ma'lumki, umumiy ta'lim maktablarida, o'rta maxsus va oliy o'quv yurtlarida yoshlarga ta'lim-tarbiya beruvchi mutaxassisni-o'qituvchi, muallim, pedagog, ustoz, mudarris, domla deb yuritiladi. O'qituvchilik eng qadimiy va boqiy kasblardan hisoblanadi. O'qituvchilik kasbining, u bilan birga pedagogik axloqning vujudga kelishi ham kishilik jamiyati tarixida tarbiyaning paydo bo'lishi, ya'ni insonlar to'plagan yurish-turish, xatti-harakatlar, mehnat sohasidagi datslabki tajribalarni, urf-odatlarini, aqliy, axloqiy, ilohiy bilimlarni yoshlarga o'rgatish; yozuv ixtiro qilingach-o'qish, yozishni o'rganish uchun tashkil etilgan datslabki maktablarning payodo bo'lishi bilan uzviy bog'liq.

Odamlar to'plagan turmush tajribasini yoshlarga o'rgatish, ularni hayotga, mehnat qatoliatiga tayyorlash ehtiyoji natijasida qadim zamonlardayoq ta'lim va tarbiya mutsaqil ijtimoiy faoliyat sifatida paydo bo'ldi.

Materialistik ta'limotga ko'ra ibtidoiy tuzum davrida tarbiya mehnat jarayonida vujudga kelgan, jamoada amalga oshirilgan; yoshlarga mehnat ko'nikmalari, jamoaning urf-odatlari, marosimlarini bajarish o'rgatilgan. Ibtidoiy jamoa tuzumining urug'chilik bosqichida tarbiya ijtimoiy vazifa sifatida ajrilib chiqqan, ya'ni kekxa yoshdagi kishilar yuolalarni tarbiyalash ishi bilan shug'ullangan. Bolalarning tanasini chiniqtirish, chidamlikka o'rgatish, harbiy jismoniy mashqlarni bajartarishga ko'proq e'tibor berilgan. Ibtidoiy jamoa tuzumining yemirilish davrida bola tarbiyasi oilada amalga oshiriladi. Ayrim kishilar tajriba natijasida dehqonchilik, chorvachilik, tabibchilik, kasb-hunar sohalarida to'plangan aqliy, axloqiy bilimlarni o'z bolalariga, yaqin kishilar va hukmdorlarning bolalariga o'rgata boshlaydilar.

Ilohiy ta'limotga ko'ra tarbiya bu, o'zligini anglash, o'z-o'zini boshqarish,

tevarak-atrofdagi olamni bilib olish, yer yuzida va jannatda yashash uchun hozirlik ko'rish, tangri dargohiga intilishdan iborat. Dinlar paydo bo'lgach, diniy tarbiya muqaddas kitoblardagi g'oyalar asosida ota-onalar yoki maxsus tayyorlangan kishilar tomonidan amalga oshirilgan.

Mashxur chex pedagogi Yan Amos Komenskiy «Buyuk didaktika» asarida ko'rsatishicha, qadim zamonlarda ota-onalar, odatda, o'z bolalarini oilada o'zlari tarbiyalaganlar. Lekin ota-onalar har xil bo'ladi: bolaga ta'lim-tarbiya berish bir xilining qo'lidan kelsa, bir xilining qo'lidan kelmaydi; bola tarbiyasi uchun ba'zilarining vaqti bo'lsa, ba'zilarining vaqti bo'lmaydi.

Bizning ota-bobolarimiz-turkiy xalqlar qadim zamonlardan beri Markaziy Osiyoda-Turon zaminda yashab keladilar. Boysun tog'idagi Teshiktosh g'oridan, Farg'ona vodiysidagi Selungur g'oridan topilgan yodgorliklar (odamning suyak qoldiqlari) bu yelerde eng qadimgi odamlar bundan yuz ming yil va bir million yillar avval yashaganidan dalolat beradi. Markaziy Osiyoda eramizdan avvalgi ming yillikda ham katta-katta qurg'onlar, shaharlar, davlatlar mavjud bo'lgan. Ularda madaniyat elementlari, din, yozuv, maktablar vujudga kelgan.

Turkiy xalqlar qadim zamonlardayoq o'z yozuviga ega bo'lgan. Ota-bobolarimiz o'tmishda uyg'ur, runik yozuvlaridan, shuningdek, sug'd, xorizmiy yozuvlaridan foydalanishgan. Arablar itsilosidan so'ng arab alifbosi qabul qilingan. Arab yozuviga asoslangan o'zbek alifbosiga ming yildan ko'proq muddatda amal qilindi. O'zbekitsonda 1929 yilda – lotin, 1939 yilda rus alifbosiga o'tildi. 1993 yilda O'zbekitson Respublikasi lotin yozuviga – yangi o'zbek alifbosiga o'tish xaqidagi qaror chiqardi.

Qadimgi Turon zaminida yashagan xalqlar sug'orma dehqonchilik bilan mashg'ul bo'lganlar. Odamlar tabiat hodisalarini ko'zatib borganlar, olam sirlari haqida ayrim kishilarga (payg'ambarlarga) vaqti-vaqti bilan g'ayb ilmi ham kelib turgan. Ayrim kishilar karomat ko'rsatib bo'lajak voqealarni oldindan ayta bilganlar. Dunyoviy ilmlardan atsrnomiya, geometriya, arifmetika, tibbiyot vujudga kelgan. Saroylar, ibodatxonalar huzurida ochilgan maktablarda yoshlarga diniy va dunyoviy ilmlar o'rgatilgan. Mirzalar, qozilar, hakimlar kabi davlat

xizmatchilari tayyorlaydigan maktablar ham bo'lgan. Sharq mamlakatlaridagi maktablarda xat-savod o'rgatish murakkab, og'ir ish hisoblangan. Ilm olish – nina (igna) bilan quduq qazish, deb bejiz aytilmagan. Mutaakkir olimlar o'qitishning yengilroq usullarini topish utschida bosh qotirganlar. Sharq mamlakatlarida qadimda yaratilgan ayrim qo'lyozma asarlarda tarbiyaning maqsadi, o'qituvchi qanday bo'lishi haqida, shuningdek, ilm oluvchining ma'naviyat qiyofasi, xislatlari to'g'risida fikr-mulohazalar bayon etilgan, maslahatlar berilgan.

Qadimgi sharq mamlakatlarida maktablarda qattiq intizom o'rnatilgan, jismoniy jazo berishga yo'l qo'yilgan. Ota o'g'lini maktabga berayotganida domlaga “bolamning eti sizniki, suyagi meniki”, degan naqilni bekorga aytmagan. Ko'pchilik hunarmand, kosib, dehqon, chorvadorlarning bolalari oilada turmush, mehnat jarayonida tarbiya olganlar, kasb-hunarni egallaganlar.

Aхлоqiy pand-nasihatlarining, ta'lim-tarbiyaning ijodkori ham, asrlar davomida yoshlarni kamolot sari yetaklab, ularga hayot ilmini, turmush saboqlarini o'rgatib kelgan to'ng'ich ustoz ham-hayot, xalqdir. Yer yuzidagi barcha kishilar singari turkiy qabilalar ham qadim zamonlardayoq hayotiy ehtiyoj taqozosi bilan o'z bolalarini sog'lom, baquvvat, mehnatsevar, katta-kichiklarni izzat-hurmat qiladigan, xushaxloq, botir, jamoani, vatanni himoya qila oladigan kishilar bo'lib ulg'ayishlarini orzu qilganlar. Tarbiya sohasida to'plagan tajribalarini, orzu-itsaklarini umumlashtirib maqol, topishmoq, ertak, rivoyat, hikoyat, dotson kabilar shaklida ifodalab yoshlarga, oila a'zolariga, boshqalarga o'rgatganlar. Shu tariqa o'zbek xalq pedagogikasi vujudga kelgan. Unda ijobiy axloqiy sifatlar, fazilatlar ulug'lanadi, salbiy illatlar esa qoralanadi. O'zbek xalq pedagogikasining shaxs va jamiyat uchun foydali, ilg'or, axloqiy g'oyalari og'izdan-og'izga, avloddan-avlodga o'tib, folklor asarlari, milliy oilaviy urf-odatlar, an'analar sifatida bizgacha yetib kelgan.

O'zbek xalq pedagogikasida ota-onaning namuna, ibrat ko'rsatishiga katta e'tibor berilgan. “Bolalarga go'zal tarbiya berish uchun, ota-onalarning o'zlari go'zal axloqli, tarbiyali bo'lishlari shartdir ... Agar ota-onalar o'z umr-yo'ldoshlari bilan go'zal ravishda umr kechirsalar, ularni hurmatlasalar, bolalar ulardan

oliyjanoblik va xushmuomalalik odobini o‘rganadilar”. O‘zbek xalq pedagogikasida qo‘llanib kelingan tarbiya usullari yoshlarga o‘zaro izzat-hurmatda bo‘lish, qadr-qimmatni anglash, samimiylilik, iltifotlilik, haqiqatlilik, mardlik, jasurlik, mehribonlik kabi insoniy fazilatlarni singdirishga xizmat qilgan. Bolani elga manzur, odobli farzand qilib tarbiyalash ota-onaning burchi hisoblangan. O‘zbek xalqi yaratgan maqol, naql, afsona, rivoyat, hikoyatlarda ma’naviy axloqiy ideallar, ibratli, qiziqarli o‘g‘itlar shaklida bayon etilgan. “Hurmat qilsang, hurmat ko‘rasan”, “Har kim ekkanin o‘radi”, “Bola aziz, odobi undanda aziz” kabi maqollar shular jumlasidandir.

4/ O‘qituvchining o‘z ustida ishlash, o‘z-o‘zini anglash, tarbiyalashida ilmiy ijod va tadqiqot ishlarining ustuvor jihatlari

Ilmiy materiallarini nashr qilish oshkora yoki yopik tarzda amalga oshirilishi mumkin. Ochiq matbuotda muayyan talablarga zid bulmagan ishlar e‘lon qilinadi.

Ilmiy materiallar quyidagi ko‘rinishda e‘lon qilinishi mumkin:

- monografiya;
- vaktli jurnallardagi maqola;
- OUYu, ITI asarlari tuplamidagi halkaro soha va boshqa xil konferensiyalar tuplamidagi maqola;

- rasmiy kengash va konferensiyalarning dokladi tezisi;
- referativ jurnallardagi maqola;
- davlat kaydnomasiga ega ITI bo‘yicha hisobotlar;
- kashfiyot va ochilgan yangilikka patentlar;
- respublika ilmiy–texnikaviy kutubxonalarida deponentlangan ishlar;
- gazetadagi maqolalar.

Ilmiy materiallarni nashrga tayyorlash uz ichiga quyidagi bosqichlarni oladi:

- ilmiy materiallarni nashr kiluvchi noshir kuygan talablarni o‘rganish;
- tanlangan ilmiy ish bulimi mazmunini yozma bayon kilish;
- sof patentlikka ko‘ra maqola mazmunini tekshirish;

- ochiq matbuotda e'lon qilish uchun maqolani ekspertizadan utkazish, kashf etish, yangilik yaratish unsurlarining yukligi;

- maqolani ichki va tashki takrizga berish;

- maqolani noshirga topshirish.

Ilmiy materiallarni rasmiylashtirish talabi material turiga bog'liq va u quyidagilarni uz ichiga oladi:

- kogoz va uning xajmiga bo'lgan talab;

- chap, ung tomonlardan, yuqori va quyidan koldiriladigan ochiq joy xajmi;

- sahifalarda tartib raqamlarini kuyish;

- rasmiylashtirish muxarriri;

- jadval va rasmlarning berilishiga talablar;

- bosish shrifti va intervali;

- bayon etilish tili;

- boshqa tildagi annotatsiyalarga bo'lgan talab.

Nashr etilayotgan ilmiy material kirish qismidan, amalda bayon etilayotgan ilmiy material mazmuni va bayon qilinayotgan mavzu bo'yicha xulosadan iborat bulishi kerak. Agar muallif ma'lum ilmiy ishlarga xavola kilsa yoki ulardan foydalansa ular adabiyotlar ruyxatida kursatilishi kerak.

Muallif patent sofligiga ilmiy maqola mustakil tekshiruvini amalga oshirishi, buni maqolani nashrga tayyorlash jarayonida bajarishi kerak. Patent sofligiga ko'ra tekshiruv uz ichiga prototiplar va analoglarni topish, farkli tomonlarni belgilashni oladi.

Har bir nashrga ekspertiza dalolatnomasi tuziladi. Buni mazkur ish bajarilgan tashkilot tuzadi, ochiq matbuotda e'lon qilish imkoni va mazmuni bo'yicha tegishli xulosa beradi.

E'lon qilishga takdim etilayotgan ilmiy materiallarga ayrim hollarda takriz talab qilinadi. Takriz ichki yoki tashki bulishi mumkin. Ichki takriz ish bajarilgan tashkilot mutaxssisi tomonidan beriladi. Tashki takriz esa boshqa tashkilot mutaxassisi tomonidan yoziladi.

Shuni ta'kidlash joizki, ishlab chiqarish bosqichida bo'lgan ilmiy - tadqiqot

ishlarining materiallari, agar tugallanmagan va muayyan aniq xulosalar bulmasa yoki yakunga yetmagan bulsa e'lon etish uchun tavsiya qilinmaydi.

Ilmiy - tadqiqotlarni joriy etish – bu texnikaviy-iqtisodiy samarani bevosita yoki bilvosita ta'minlovchi ilmiy mahsulotni ishlab chiqarish va iste'mol sohasiga yetkarib berish.

Ilmiy mahsulot buyurtmachi yoki iste'molchiga hisobotlar, yuriknomalar, uslubiyot, muvakkat kursatmalar, texnikaviy shartlar, texnikaviy loyixa va x.k.lar tarzida beriladi.

Iqtisodiyotning ko'pgina sohalarida undan mavjud mahsulotni rakobatbardoshligini ta'minlash uchun takomillashtirish yoki yangisini yaratishda foydalaniladi. Bunday holda joriy etish jarayoni ikki bosqichda joriy etiladi: birinchi bosqich – tajribaviy ishlab chiqarishga joriy etish, ikkinchisi seriyali.

Yangi mahsulot namunasi tajribaviy ishlab chiqarish sinovidan sung ikkinchi bosqichga seriyali ishlab chiqarishga joriy etiladi. Bunda joriy etish xajmi buyurtmachi tomonidan bozor talabidan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Ilmiy mahsulotni joriy etishni tezlashtirish uchun ilmiy - tadqiqot tashkiloti loyihalash tashkiloti bilan birlashadi. Bunday vaziyatlarda barcha ishlarga birta markaz raxbarlik qiladi. Natijada joriy etish muddati qisqaradi, mahsulot sifati va raqobatbardoshligi oshadi. Rivojlangan mamlakatlarda mazkur muammo texnopark yordamida hal etiladi.

Texnopark - bir yoki bir necha ITI bilan yakin alokaga ega bo'lib, ilmiy va informatsiya muhitini rivojlantirish bilan shugullanuvchi, ilmiy mahsulotning yangi texnologiyalar bozoriga jadal kirib borishi uchun ilmiy mahsulot ishlab chiqarish bazasini o'zlashtirishga zamin yaratuvchi tashkilotdir. 90-chi yillarning boshlariga kelib jaxonda 340 ga yakin texnoparklar tuzilgan.

Ilmiy - tadqiqotlar samarasi quyidagalarga bulinishi mumkin:

- iqtisodiy samaradorlik (milliy daromadning oshishi, ish samaradorligi va mahsulot sifatining oshishi, ilmiy - tadqiqotlarga bo'lgan xarajatning kamayishi);
- ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik (ogir mehnat sharoitini bartaraf etish, atrof-muhitni tozalash, tibbiy-gigienik sharoitni yaxshilash va x. k.);

- mamlakat mudofaa kudratini mustaxkamlash;
- mamlakat ilmiy saloxiyatining obrusi.

Ilmiy - tadqiqotlar samaradorligini baholash uchun ular natijasi kay darajadaligini tasvirlovchi turli mezonlar kullaniladi.

Fundamental nazariy tadqiqotlarni samaradorlikning mikdoriy kursatkichlari bilan baholash qiyin. Ular odatda ishlanmalar boshlangandan sung ancha qiyin samara bera boshlaydi. Bundan tashkari, ular natijasidan iqtisodiyotning turli sohalarida foydalaniladi. Shuning uchun kutilayotgan samarani baholash qiyin. Bunday tadqiqotlar uchun, qoidaga ko'ra, sifat mezonlari belgilanadi: xodisaning yangiligi, mamlakat fanining obrusi, ish halkaro miqyosida tan olinishi, mamlakat mudofaa imkoniyatiga kushilgan xissa.

Amaliy ilmiy - tadqiqotlar va tajriba-konstruktorlik ishlanmalar turli mikdoriy mezonlar bilan baholanadi, shulardan asosiysi – iqtisodiy samaradorlik. Bu joriy etishga bo'lgan xarajat, joriy etish ko'lami, muddati va xokazo omillarga bog'liq.

Ilmiy xodimning ish samaradorligi ishlanmaning yangiligi, e'lon qilingan maqolalar soni, ishdan kuchirmalar olish va x. k. bilan baholanadi.

Yangilik mezoni – bu avtorlik guvoxnomasi va patentlar mikdori, kuchirmalar olish ilmiy xodim ishlariga xavolalar soni. Iqtisodiy baholash esa kamdan - kam kullanadi. Ilmiy - tadqiqot guruxi mehnat samaradorligi quyidagi mezonlar bo'yicha baholanadi: mehnat samaradorligi, joriy etilgan mavzular mikdori, ilmiy mahsulotni tadbic etishdan kelgan iqtisodiy samara, olingan avtorlik guvoxnomasi va patentlar soni, sotilgan litsenziyalar soni va boshqala.

Ilmiy - tadqiqotlar samaradorligi – bu ilmiy ijod bilan shugillanish va kishilik jamiyati farovonligini oshirishga yo'naltirilgan ilmiy – texnikaviy mahsulot yaratish strategiyasi va taktikasining asosi.

XULOSALAR

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib va tadqiqot natijalariga tayangan holda quyidagi umumiy xulosalarga kelindi:

O'qituvchilik kasbi murakkab faoliyat bo'lib, u bir tomondan, ijtimoiy buyurtma bajarilishini, ikkinchi tomondan, tahsil oluvchilarning individual xususiyatlari va shart-sharoitlarini, uchinchi tomondan esa mustaqil holda ijodiy ish ko'rishni talab etadi.

O'qituvchining jamiyat taraqqiyoti faravonligini ta'minlashdagi o'rni haqida gap ketar ekan, u ta'lim oluvchilarni va o'z kasbini sevishidan tashqari saboq beradigan fani bo'yicha ham har tomonlama mukammal bilim, ish-harakat usullari, ijobiy-shaxsiy fazilatlarga ega bo'lishga erishishi lozim.

O'qituvchilari zamonaviy fan-texnika taraqqiyoti, ilg'or ishlab chiqarish texnologiyasi, ijtimoiy-iqtisodiy talablarni mohiyatiga tushunib yetmaganligi sababli o'ziga yuklatilgan nihoyatda murakkab va mas'uliyatli ish hisoblangan yosh avlodni ma'naviy, ruhiy va jismoniy jihatdan kamol toptirishdek muhim vazifalarni ado eta olish imkoniyatiga ega bo'lmaydilar.

O'qituvchilik burchining mazmuni ta'lim-tarbiya jarayonining mohiyati bilan belgilanadi. Bu jarayonda o'quvchilar insoniyat asrlar davomida to'plagan bilim, ko'nikma va malakalarni egallab oladilar. Shuningdek, o'qitish jarayonida muallimning bajarayotgan ishiga munosabati ham, uning shaxsiy fazilatlari va qo'yiladigan axloqiy talablari aks etadi. O'qituvchilik kasbini tanlagan kishi bu axloqiy talablar va yo'l-yo'riqlarni albatta bajarishi zarur.

O'qituvchining mas'uliyati-mas'uliyat tushunchasining butun mazmunini saqlagan holda muallimning faoliyati va ta'lim-tarbiya jarayonining aniq vazifalarini ham o'z ichiga oladi. O'qituvchi zimmasiga bola shaxsini barkamol inson sifatida tarbiyalash mas'uliyati yuklanadi. Muallim o'quvchilarga chuqur nazariy bilimlar berishi, uni hayotga, mehnatga tayyorlashi lozim. Shu bilan birga, u boladagi mavjud layoqat va qobiliyatlarni payqab, alohida yondashishi, unda mavjud bo'lgan ijobiy axloqiy fazilatlarni avaylab ustirishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: Sharq , 1997. – 64 b.
2. Karimov I.A. Yuksak malakali mutaxassislar – taraqqiyot omili. – T.: O'zbekiston, 1995. – 32 b.
3. «O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari uchun pedagog kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida»gi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 4 - oktabrdagi 400-sonli qarori.
4. Begimqulov U. Masofaviy o'qitish va pedagogik ta'lim // Pedagogik ta'lim, – Toshkent. 2004. – № 5. – B.19 – 21.
5. Davlatov K. Mehnat va kasb ta'lim tarbiyasidan amaliy mashg'ulotlar. – Toshkent: O'qituvchi, 1995. - 206 b.
6. Davletshin M.G. Zamonaviy maktab o'qituvchisining psixologiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 1999. - 29 b.
7. Muslimov N.A. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini kasbiy shakllantirish. Monografiya. –T.: Fan, 2004. - 128 b.
8. Muslimov N.A., Qo'ysinov O.A. Kasb ta'limi yo'nalishi bakalavrlarini tayyorlashda mustaqil ta'limning ahamiyati // Maktab va hayot. – Toshkent, 2004. - № 1. – B. 18 - 20.
9. Nishonova Z. Mustaqil fikr rivojlanganligining psixologik mezonlari // Xalq ta'limi. - Toshket, 2001.- №1.- B. 38 – 40.
10. Pedagogika /A.K.Munavvarovning umum. tahriri ostida. – Toshkent: O'qituvchi, 1996. – 200 b.
11. Qulieva Sh.Q., Qo'ysinov O.A. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar // Kasb-hunar ta'limi. – Toshkent, 2007. – №2. – B. 9 – 10.
12. <http://www.istedod.uz/>, <http://www.pedagog.uz/>